

TOSHKENT MASJIDLARI: ZAMONAVIY ARHITEKTURA, REKONSTRUKSIYA TAJRIBALARI VA MILLIY BEZAK SAN'ATINING UYG'UNLIGI



Maftuna Kalbayeva
(PhD) mustaqil izlanuvchisi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-06-03>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrida so‘nggi yillarda qayta tiklangan va yangidan barpo etilgan masjidlar arxitekturasini, ularning bezak san‘ati va milliy me‘moriy an‘analarni davom ettirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada Toshkent shahridagi yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan masjidlar guruhlariga ajratilib, “Shayx Zayniddin”, “Islom ota”, “Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf”, “Ubay ibn Kaab” va “Rakat” kabi yirik masjidlar arxitekturaviy yechimlarini atroflicha yoritiladi. Shuningdek, maqolada Toshkent masjidlarida arab, turk, ispan-musulmon me‘morchilik unsurlari Markaziy Osiyo an‘analari bilan sintezlangan holda ishlatilayotgani ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Masjid, xattotlik san‘ati, me‘morchilik, ganchkorlik, Toshkent shahri.

Аннотация: В данной статье анализируется архитектура мечетей, которые в последние годы были восстановлены или заново построены в городе Ташкент, а также их декоративное искусство и роль в продолжении национальных архитектурных традиций. В статье мечети, построенные и реконструированные в Ташкенте, классифицируются по группам, подробно рассматриваются архитектурные решения таких крупных мечетей, как «Шайх Зайниддин», «Ислам ота», «Шайх Мухаммад Сodik Мухаммад Юсуф», «Убай ибн Кааб» и «Ракат». Также в статье научно обосновано, как в архитектуре ташкентских мечетей синтезируются элементы арабской, турецкой и испано-мусульманской архитектуры с традициями Центральной Азии.

Ключевые слова: Мечеть, искусство каллиграфии, архитектура, ганчкачество, город Ташкент.

Abstract: This article analyzes the architecture of mosques that have been recently restored or newly constructed in Tashkent city, focusing on their decorative art and the role they play in continuing national architectural traditions. The article categorizes the newly built and reconstructed mosques in Tashkent, thoroughly examining the architectural solutions of major mosques such as “Shaykh Zayniddin,” “Islom Ota,” “Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf,” “Ubay ibn Kaab,” and “Rakat.” Additionally, the article provides a scholarly analysis of how architectural elements from Arab, Turkish, and Spanish-Muslim traditions are synthesized with Central Asian traditions in the design of Tashkent mosques.

Keywords: Mosque, calligraphy art, architecture, gypsum carving, Tashkent city.

Bugungi kunda Toshkent shahrining o‘zida Musulmonlar idorasidan olingan ma‘lumotga ko‘ra 137ta masjid faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu masjidlarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Qayta tiklangan va yangi barpo bo‘lgan masjidlar. Toshkent shahrida yangi barpo bo‘lgan masjidlar sonidan ko‘ra qayta tiklangan masjidlar soni ko‘proq. Bunga sabab yangi joyda yangi masjid barpo qilish ishlari birmuncha murakkab bo‘lganli uchun. Xozir qayt etiladigan masjidlar asosan mozorga yaqin joyda qurilgan eski masjidlar asosida rekonstruksiya qilingan va hajm jihatdan birmuncha kattalashtirilgan. Bu masjidlar tiklanishida davlat tomonidan mablag‘ ajratilib, milliy arxitekturaviy an‘analar saqlanib qolishiga harakat qilingani seziladi. “Minor”

masjidi (2014), Shayh Zayniddin(Ko'kcha) (2014), "Chimir ota"(2014), "Islom ota"(2016), "Imom A'zam" (2016), "Suzuk ota" majmuasi(2019), "Abdulloh ibn Zubayr" (2020), "Eshonguzar" (2021) va boshqa ko'plab masjidlarni misol qilish mumkin. O'zbekistondagi hajmi yirik masjidlar asosan davlat homiyligida katta majmualar ko'rinishida barpo etilmoqda. "Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf" majmuasi (2019), "Eshon Boboxon"(2020), "Siroj Solih"(2020), "Doris salom"(2021), "Abu Saxiy" majmuasi (2022), "Islomobod"(2022), shular jumlasidandir. Toshkentda yangi ko'rinishda qad rostlayotgan masjidlar qurilishida mahalla ko'ngilli homiylarining ham xizmati katta. Tuman va mahallalardagi ko'p yillik ta'mirga muhtoj masjidlar yangidan qayta tiklanib bormoqda. "Ko'h ota"(2018), "Imom Termiziy"(2018), "Ubay ibn Kab"(2018), "Novza"(2018-2019), "Rakat"(2019), "Chosh tepa" (2020), "Iskandarxo'ja"haytek(2023), "Tepa jome"masjidi(2023) "Oq uy"(2024), "Hasanqori"(2024) masjidlarini misol tariqasida olish mumkin. Biz ilmiy izlanish doirasida Toshkent shahrida so'nggi yillarda qayta bunyod bo'lgan, hajm jihatidan katta va xattotlik namunalari ko'p ishtirok etgan masjidlarni saralab olishga harakat qildik: "Shayx Zayniddin" (2014) masjidi, "Islom ota"(2016), "Ubay ibn Kab"(2018), "Rakat"(2019), "Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf" majmuasi (2019), shular jumlasidandir.

Bugun dunyo masjidlari arxitekturasida modernizm va avangard uslubidagi yechimlarni qo'llash takomillashgan bir paytda, Toshkent masjidlari arxitekturasida o'zining muayyan qoidalari va an'anaviy uslublarini saqlab qolishda davom etmoqda. Misol tariqasida "Shayx Zayniddin" (Ko'kcha) masjidi eng mahobatli va milliy an'anaviy arxitekturaga yo'g'irilgan masjid hisoblangan. Bu bino masjidlar rekonstruksiya bo'yicha dastlabki tajribalardan biri bo'lib, o'zining boy tarixi bilan, Toshkent shahrida alohida qadrlangan va mahalliy aholi orasida "Ko'kcha" nomi bilan tanilgan. Bu masjid arxitekturaviy chizgilariga chet ellik soha mutahassislari ham qiziqib, Toshkentga Ko'kcha masjidi me'morini izlab kelishgan. Ushbu masjid 1-me'mori Q.Muhammedjanov hisoblanadi. Me'mor bilan suhbatimiz davomida masjid uchun ko'plab qulay joy qidirilgani, keyin esa Ko'kcha masjidini qaytadan qurdirish taklifi kiritilganini aytib o'tdi. Ushbu masjid qurilishiga 1991-yil ruxsat berilgan, uzoq vaqt davomida ko'p loyihalar tanlangan, o'zgartirishlar kiritilgan. Ko'kcha masjidi xonaqohida qibla ya'ni mehrob noto'g'ri joylashgan bo'lib, birinchi navbatda shu mehrobning joyi to'g'irlangan. Eski Ko'kcha masjidining yog'och ayvoni bo'lgan, ana shu ayvonni buzmasdan to'liq holicha yangi masjid binosiga ko'chirib o'tkazishgan. Bu esa, O'zbekiston tarixida birinchi marta imorat ko'chirilishi jarayoni bo'lgan. Memor Q.Muhammedjanov boshchiligidagi undan keyingi yillarda "Xo'ja Ahror Valiy", "Firdavs" masjidining proektlari tayyorlangan. [1-rasm].



1-rasm

1995-yili me'mor A.Turdiyev loyihasi asosida ushbu masjid yana ancha kengaytirilgan va yangilangan. A.Turdiyev Toshkentda va O'zbekistondan tashqari bunyod etilgan eng e'tiborli masjidlar va binolar muallifidir. Ushbu masjid va binolar o'zida O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi o'rta asrlar me'morchiligiga xos an'analarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Masjid arxitekturasida milliylik va zamonaviy arxitektura uslublari birlashganini ko'rish mumkin. Tashqi

tomondan osmono'par minora va masjidga kirish peshtoqi, masjid hovlisida mahobatli gumbaz bilan qoplangan kvadrat shakldagi ikki qavatli xonaqoh joylashgan. Masjid binosi 6000 namozxonga mo'ljallangan bo'lib, hovlisida romli ayvon, tahoraxona, oshxona, konferensiya zali, mutavalli va imom-xatib xonalari o'rin olgan. "Shayx Zayniddin" jome masjidi 2014 yil rekonstruksiya qilingan, masjid interyeri to'liq qayta qurilgan, ichki bezaklar yangilangan. Ushbu masjid bezaklarida milliy xunarmandchiligimiz xalq ustasi Usto Mahmud ota shogirdlaridan biri Hakimjon Inagamov boshchiligidagi ganchkor va Kamoliddin Xamzayev boshchiligidagi naqqosh ustalar guruhi yuqori did bilan ta'mirlash ishlarida faol qatnashgan. Ko'kcha masjidi asosiy gumbazi deyarli bitta xonaqohni o'ziga qamrab oladi. Bunga sabab masjid potolokida novo uslubi ishlatilgan. Bu novo gumbazga qo'shilib ketgan shuning hisobiga shift bezagi hajmi kattadek ko'rinadi. Xonaqoh ikki yonida qo'shimcha yopiq ayvonchalar mavjud. Bu ayvon shiftiga zanjira uslubida ganchkorlik naqshi ishlatilgan. Ushbu uslubni ko'proq kichik hajmdagi joylarda ishlatiladi, masjid ko'rinishi noodatiy bo'lishi uchun katta hajmda qandillar tepasida ishlatilgan. Ko'kchani konferensiya zali ham noodatiy shifti bilan boshqa masjidlardan ajralib turadi. Masjid bitiklarini esa go'zal xattotlik asarlari bilan interyerni Habibullo Solih, tashqi yozuvlarni Islom Mamatov yozib bergan. Rekonstruksiyadan so'ng masjid ko'rinishi arab va turk masjidlariga o'xshab qolgan. Chunki masjid gumbazi va minora yuzalari muqarnaslar bilan bezatilgan, baland to'g'ri to'rtburchakli asosga ega, qirrali minoralardan foydalanilgan. Bu usul an'anaviy Sharq me'morligida uchramaydi, shunga qaramay so'nggi yillarda qurilgan masjid gumbaz va minoralarida bu usulni ko'p uchratish mumkin. Masjid interyer va eksteryeridagi yana bir o'zlashtirilgan tomoni ravoq hoshiyalarida ketma-ket almashuvchi turli ranglar ritmi. Bu kabi bezak turini Ispaniya musulmon me'morligida uchratamiz. "Shayx Zayniddin" masjidida bu bezak turidan barcha xonalarda, xonaqoh va taxoraxona ichidagi xonalarning ravoq chetlarida, shu bilan birga tashqi derazalarning atrofida xam foydalanilgan. Bu kabi usuldan "Ubay ibn Kaab" masjidi interyerida ham qo'llanilgan.

"Shayx Zayniddin" masjidining gumbaz ranglarini ham yangilik sifatida qabul qilish mumkin-unda sirlangan sopol taxtachalar yordamida yaratiluvchi moviy rang o'rniga to'q yashil rangdagi metal cherepitsa ishlatilgan. Metal cherepitsa tejamkor material bo'lib, u ko'proq to'q yashil va qo'ng'ir rangda ishlab chiqariladi. Yangi masjidlar qurilishida ko'p mehnat talab qiluvchi va narxi qimmat materialdan voz kechilishi tufayli masjidlardagi gumbazlar rangi o'zgardi. Bu kabi gumbaz rangidagi o'zgarishlarni ustalar iqtisodiy tomonlama kamxarjlik yuzasidan deb izohlashadi. Shuning uchun bugungi kun masjidlarida metal cherepitsa rangidagi gumbazlar ommalashdi. Bunday to'q yashil rangli gumbaz "Ubay ibn Kaab" masjidida ham ishlatilgan.

Zamonaviy me'moriy g'oyalar, takomillashgan bezak xom-ashyolari, ustalarning mahoratlari tufayli me'moriy bezakda ham yangicha usullar, naqsh yo'llari shakllanib, me'moriy bezak sohalarining o'ziga xos sintezi paydo bo'lmoqda. Zamonaviy Toshkent me'morchiligida XX asr oxiridan boshlab qadimiy masjidlarni ta'mirlash va qayta qurish, yangi mahobatli jome masjidlarining bunyod etilishi avj oldi. Turli ko'rinishdagi me'moriy shakllar va bezaklar ushbu inshootlarda ko'plab qo'llanilmoqda. Ushbu zamonaviy bezaklardan keng foydalanilgan, ammo an'anaviy me'moriy uslubi saqlanib qolingani yana bir masjid "Islom ota" masjidi hisoblanadi. Toshkent shahri Yashnobod tumanida joylashgan "Islom ota" jome masjidi yangidan barpo bo'lgan. Bu masjid o'rnida ilgari Jo'rabek jome masjidi faoliyat yuritgan. Eski masjid 2015-yil yong'in sababli talofat ko'rib, butunlay yaroqsiz xolatga kelgandan so'ng, 2016-yilda "Islom ota" masjidi homiylik asosida davlat va mahalla tashabbuskorlari boshchiligidagi qaytadan qurildi.[2-rasm].




2-rasm

Yangi masjidning maydoni bugungi kunda ikki barobarga oshgan, 2900 kvadrat metrdan 5400 kvadrat metrgacha kattalashdi. Masjid o'ziga 1500dan ziyod namozxonni sig'dira oladi. Asosiy xonaqohda 850ta, yerto'lada 750ta kishi diniy amallarni ado qila oladi. Masjid xonaqoh, tahoratxona, ayollar namozxonasi, kutubxona va imom xatib xonasini o'z ichiga oladi. Bino to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, masjidning asosiy binosi (xonaqoh) kvadrat shaklda. Uning umumiy balandligi gumbaz bilan birgalikda 22,1 metrni tashkil qiladi. Masjidida 36,65 metrlik uzun minora va har birining balandligi 10,82 metr bo'lgan xonaqoh binosi chekkalarida 4ta kichik minoralar mavjud. Masjidga kiraverish darvozasining o'ng qo'lida asosiy xonaqoh, chap qo'lida esa ayollar uchun namozxona mavjud. Ayollar namozxonasiga kiraverish yo'lida masjid hovlisida kichik moviy gumbazli peshtoq mavjud. Bu peshtoq g'ishtdan, sirlangan koshinlar ko'rinishidagi girix naqshlar bilan bezatilgan. Masjid interyeridagi deyarli barcha milliy tusdagi keramik naqshlar chet eldan keltirilgani sabab, naqshlar ustida naqqosh ustalar ishlamagan. Tashqi fasad naqshlari esa Kamoliddin Xamzayev ijodlariga mansub. Islom ota masjidi proektini me'mor A.Turdiyev tayyorlagan. Masjidning imom xatib xonasidagi ganchkorlik bezaklari X.Inag'omov tomonidan amalga oshirilgan. Islom ota masjidi barcha xattotlik yozuvlarida Aziz xattot eskizlaridan foydalanilgan.

Poytaxtdagi Hazrati Imom, Shayx Zayniddin, Minor, Shayx Muhammad Sodiq masjidlari mehroblarida an'anaviy usulni saqlab qolganligi namoyon bo'ladi. Mehroblarning bir yarusli ichki qismi yuqorisidagi muqarnaslar, tashqi tomonidagi peshtoqli kompozitsiya, yuqori va ikki yon hoshiyalaridagi uzulmagan qalin tasma ichidagi suls xat turida bitilgan oyatlar bilan xarakterlanadi. Masjid makonida mehrob va minbar bir-biridan ajralmas tegishli komponentlardir. Qoidaga ko'ra, minbar alohida zinapoya shaklida mehrob yonida o'rnatiladi. Toshkentdagi masjidlarda yog'och minbarlarning ko'p sonli shakllari mavjud. Bir qancha masjidlarda minbarlar uch pog'onali va undan ko'p pog'onali taxtga o'xshaydi. Boshqa bir guruh minbarlar devorda kichik ayvoncha shaklida ishlangan. Noodatiy minbarlarga Islom ota masjidida besh pog'onali yon tomonlarida panjara va poydevor orasidagi o'yilgan ochiq panjarali qadamlar metall - nikeldan yasalgan minbar kiradi. Ushbu guruhdagi masjidlarning barcha detallarida O'rta Osiyo me'morchiligi an'alarini ushlab qolish, milliylikga e'tibor berishga urinish sezilib turadi.

“Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf” jome masjidini Sharq an'anaviy me'morchilik san'atining eng go'zal namunasi sifatida e'tirof etish mumkin.[3-rasm]. Ushbu masjid Toshkent shahar Chilonzor tumani So'g'ali ota mahallasida joylashgan eng muhtasham ibodat maskani hisoblanib, marhum Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining nomlari bilan atalgan. Uning qurilish ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan amalga oshirilgan. Masjid qurilishi 2018-yilda boshlanib, ustalarning shiddatli harakatlari bilan 2019-yil bitkazib, foydalanishga topshirilgan.



3-rasm

Ushbu masjid proektini ham A.Turdiyev tayyorlagan, masjidlar arxitekturasiga qarab A.Turdiyevning eskizi asosidaligini payqash qiyin emas. Chunki me'mor tayyorlagan proektlarda an'anaviy me'moriy uslub sezilib turadi. Bu kishi masjidning umumiy maydoni 2 gektarni tashkil qilib, uning hududiga katta xonaqoh, ayollar namozxonasi, tahoratxona, anjumanlar saroyi kiradi. Masjid arxitekturasiga katta to'g'ri to'rtburchakli maydonning yuqori qismida katta kvadrat asosiy xonaqoh, uchta kirish peshtoqi, hovli uch tomoni ustunli ayvon, tashqi va ichki favvoralar iborat. Ushbu arxitekturali masjidlar Toshkent shahrida ilgari qurilishni boshlagan, shuning uchun bu masjid arxitekturasini Toshkent an'anaviy me'morchilik san'ati namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin. "Uch tomoni ayvon va baland gumbaz bilan yopilgan masjid Toshkentda ham maxobatli, ham yengil qurilmalarda qilingani aniqlangan. 1883-yili qurilgan Oxunguzar masjidining xonaqoh va ayvonlari pishiq g'ishtdan maxobatli qilib qurilgan." Masjidida asosiy xonaqoh katta gumbazi, ayollar namozxonasi kichik gumbazi va birinchi kirish peshtoqiga o'rnatilgan kichik gumbazi mavjud. Kirish peshtoqi ikki chekkasiga baland ikki minora o'rnatilgan. Kvadrat shakldagi xonaqoh fasadining 4ta chekkasiga esa kichik minorachalar o'rnatilgan. Masjidning umumiy rangi qaymoqrang bo'lib, gumbaz va minora gumbazchalarining moviy rangi bilan hamohang bo'lgan. Masjidning fasadi to'liq Sharq an'anaviy me'morchiligiga to'g'ri kelsa, masjidning interyerida zamonaviy va an'anaviy uslublarni uyg'unligini payqash qiyin emas. Masjid interyeridagi ustunlar bir qarashda grekcha ustunlarni eslatadi. Shiftlarda foydalanilgan elementlar ham zamonaviy uslub ko'rinishini berib turadi. Masjidida xavo aylanishini ta'minlab beruvchi bo'rtma naqshlar kamligi tufayli, shiftning tepasiga mahsus havo aylanishini ta'minlab beruvchi moslamalar o'rnatilgan. Xonaqoh gumbazi shiftning aylanisida bo'rtma grix naqshlarini ko'rish mumkin. Uning pastidan esa asosiy gumbaz maydonini egallagan kvadrat shakldagi lentaga xattotlik yozuvlari yozib chiqilgan. Xonaqoh markazidagi mehrobda ham ganch o'ymakorligi bezaklaridan maqsadli foydalanilgan. Mehrobning ikki chekkasida esa hoshiyaga olingan mukammal bitilgan xattotlik yozuvini ko'rish mumkin. Masjid interyeri ortiqcha hashamdorlikdan xoli, sodda, nafis ko'rinishda bezatilgan.

Masjid bezaklarining Markaziy Osiyodagi an'anaviy qolipi bu xattotlik namunalari, ganch va yog'och o'ymakorligi, koshinkorlik shu bilan birga, to'rtburchak xonaqoh shiftida bitta katta gumbaz va tepa qismida tamburi derazalarning mavjudligidan iborat. Toshkent shahrida qurilayotgan yangi masjidlarining me'morchiligi bezaklarida Markaziy Osiyo mahalliy me'morchiligi, naqqoshlik an'analari, shuningdek, arab, turk va ispan-musulmon (Marvitanliya) me'morchiligiga xos unsurlardan foydalangan holda, masjid qiyofasini yangilashga harakat qilayotganini kuzatish mumkin. Bu unsurlarni asosan homiyar tomonidan yangidan bunyod bo'layotgan yoki kapital ta'mirdan chiqayotgan masjidlarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu masjidlarda homiyning xoxish-istaklarini inobatga olgan holda, arxitekturiy yechimi va me'moriy bezaklari ishlab chiqiladi. Bunday unsurlarni qayta bunyod bo'lgan "Ubay ibn Kaab", "Rakat", "Eshon Boboxon" masjidlarida ko'rish mumkin. "Ubay ibn Kaab" jome masjidi Chilonzor tumanida joylashgan, 2018-yil qayta ta'mirdan chiqqan.[4-rasm]. Ungacha bu masjid

o'rnida 1993-yildan boshlab "Bo'rijar" jome masjidi faoliyat yuritgan. 2019-yilda esa yangi ta'mirdan chiqqan masjid nomi "Ubay ibn Kaab" jome masjidiga o'zgardi. Masjid tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, asosiy xonaqoh maydonning markazida joylashgan. Xonaqohga olib kiruvchi asosiy peshtoq ham markazda joylashgan. Peshtoq ikki chekkasida ikki unchalik baland bo'lmagan minoralari mavjud. Masjidda 1ta katta asosiy xonaqoh gumbazi va qo'shimcha yana 11ta gumbazlar mavjud.



4-rasm

"Asosiy gumbazdan kelib chiqqan holda, turli kattalikdagi gumbazlar ritmidan foydalanish A.Raximov boshchiligidagi me'mor va dizaynerlar faoliyati uchun xosdir. Bu ayniqsa, "Ubay ibn Kaab" masjidining rejasida yorqin namoyon bo'lgan." Masjid ibodat zalini yopgan asosiy gumbazdan tashqari 2018-yilda qo'shilgan ikkinchi xonaqohga ham yana 3ta gumbaz o'rnatilgan. Tashqi fasad tomonda kirish peshtoqlari ustiga uchta bezakdor gumbazlar ham o'rnatilgan. Peshtoq chetida o'rin olgan minoralar ustida ham peshtoq ustidagi gumbazlardan biroz kichik bo'lgan o'lchamdagi gumbazlar joylashtirilgan. Bu masjid gumbazlari ustki qismi ham bo'rtma muqarnaslar bilan bezatilgan. Turli hajmdagi bu gumbazlar masjidga o'zgacha ko'rinish bag'ishlab turadi. Masjid ichkarisidagi kichik xonaqoh birinchi qurilgan, bu xonaqoh ustida 3 yil ishlangan. Ushbu xonaqoh mehrobi biroz kichik, biroq xonaqoh maydoni bitta gumbazni qamrab oladi. Ya'ni shift devorlari katta bir gumbazni eslatadi. Xonaqoh aylana shaklda, devor chetlari esa feruzarang arkalar bilan boyitilgan. Ushbu arka ichi qo'l mehnati emas, xattotlik yozuvi aks etgan oboy yopishtirilgan. Xonaqoh ichini mehrob oldidagi ikki arkasimon deraza yoritib beradi. Keyinchalik esa masjid xovlisi o'rniga xozirgi katta xonaqoh qurildi. Ushbu xonaqoh ganchkorlik bezaklarida X.Inag'omov boshchiligidagi guruh ishlab, noodatiy bezaklardan foydalanishdi. X.Inag'omovning aytishicha, masjid mehrobining o'zi 2-3 marta o'zgargan, bundan 10 yil oldin mehrob-gumbaz kalonnalar orasida bo'lgan, oradan vaqt o'tib, bu mehrob qayta ishlandi. Barcha bezak va yozuvlari yangidan qayta ishlandi. Yangi xonaqoh yozuvlarida va tashqi fasad yozuvlarida xattot I.Mamatov ijod qilgan. Masjid shiftlarida o'zgacha bo'rtma naqshlar bor, uning ichi esa xattotlik yozuvlari bilan boyitilgan. Shiftdan pastroq maydonda xonaqoh bo'ylab qo'yilgan tepa derazalar xonaqohni doim yorug' turishiga, uning keng ko'rinishiga xizmat qilib kelmoqda. Xonaqoh gumbazi naqshlari ham boshqa masjidlaridan ancha farq qiladi, gumbaz tashqi maydoniga gul ko'rinishini eslatuvchi 8 burchakli elementdan foydalanilgan. Masjidga kirganda birinchi o'ng qo'lda mehrob, chap qo'lda kutubxona va masjid ayvonlarini ko'rish mumkin. Xonaqoh ustunlari ham zamonaviy uslubda, tepa bezaklari muqarnaslarni eslatadi. Masjid koloriti uchun tanlangan och siyohrang bo'yoq bino ko'rinishini yanada boyitib bergan. Xozirda ushbu masjid o'ziga 3000 namozxonni sig'dira oladi.

Bir qarashda arxitekturasini turk masjidini eslatuvchi Toshkent shahridagi yana bir qayta qurilgan masjid bu "Rakat" masjidi hisoblanadi.[5-rasm]. 2019-yil Musulmonlar diniy idorasi

boshchiligida vaqtlar o'tishi bilan nurab qolgan Rakat masjidining eski binosi buzilib, o'rniga yangi masjid loyihasi asosida barcha qulayliklarga ega zamonaviy masjid qad rostladi. Masjid arxitekturasida boshqa masjidlardan ikkita anchagina farq qiladi. Masjid binosining ustki qismida hajmi unchalik katta bo'lmagan yettita gumbaz o'rnatilgan. Ulardan uchta kirish peshtoqidagi maydonda bir qator bo'lib joylashgan, to'rtinchi esa asosiy xonaqoh maydoni bo'ylab katta gumbazning burchaklarida joylashgan. Ba'zi masjidlarda asosiy gumbazdan tashqari o'rnatiladigan qo'shimcha gumbazlar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin. Birinchi sabab dizayn uchun, ikkinchi sabab asosiy gumbaz derazalaridan tushayotgan nur yaxshi tushmaydigan joylarni yoritib berish maqsadida, ya'ni nurning to'g'ri tushishiga xizmat qiladi. Rakat masjididagi gumbazlarni dizayn uchun uning salobatli ko'rinishini oshirish maqsadida o'rnatilgan deyish mumkin.



5-rasm

Masjidda kirish asosiy peshtoqining ikki chekkasida ikki baland minoralar mavjud. Rakat masjidi barcha bezaklarida X.Inag'omov rahbarligidagi guruh faoliyat yuritgan. Bu jamoa o'z ijodiy faoliyati davomida birinchi marotaba Rakat masjidi uchun qora rang ishlatishdi. Shu paytgacha masjidlar koloriti sof va yengil ranglar bilan ishlangan, yangilik tariqasida ushbu

masjidda qora rang ishlatilgan-deydi X.Inag'omov. Masjidga kirganda 2 qavatli dahliz mavjud, potoligida esa tamburiy derazalari bor, uncha katta bo'lmagan uchta gumbazni ko'rish mumkin. Dahlizning chap qo'lidan asosiy xonaqohga kiriladi. Dahlizda xonaqohga kirish uchun 4ta yog'och o'ymakorligida bezatilgan eshiklar mavjud. Masjid interyeridagi ustunlar Italiya yo'nalishidan nusxa qilingan. Bu ustunlar ko'pincha Venetsiyada ishlatiladi, Toshkent masjidlarida asosan konusli ustunlar ishlatiladi. Asosiy xonaqoh markaziy devorida mehrob joylashgan. Xonaqohning ikki chekka tomonlari uzun tanburiy shakldagi derazalar bilan qoplangan. Bu derazalar xonaqoh yorug'ligini ta'minlab beradi. Asosiy gumbaz chetlaridagi kichik gumbazlar ham did bilan bezatilgan. Barcha gumbazning ostki qismlarida ganchkorlik va xattotlik san'ati namunalari manfaatli qo'llanilgan. Masjid xonaqohi va gumbazi katta bo'lsa elementlar ko'p ishlatiladi, ohang qaytmasligi, dizayn va yorug'likni to'g'ri tarqatib berish uchun va tabiiy usulda masjidda to'planib qolgan havo chiqib ketishi uchun bu bezaklar qilinadi-deydi X.Inag'omov. Masjidning xattotlik ishlari xattot N.Tursunaliyev qalamiga mansub. Shu bilan birga T.Fayzullaev, N.Umarov, J.Rahmatullaev kabi yetuk milliy ganch, naqsh, yog'och o'ymakor, temirchi ustalar ushbu masjid qurilishida o'z mehnatlarini ayashmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan masjidlar rekonstruksiya va yangi masjidlar qurilishida milliy me'morchilik an'analari saqlanib qolgan holda zamonaviy innovatsiyalar joriy etilayotgani ko'zga tashlanadi. Masjidlarning arxitekturaviy shakllari, gumbaz kompozitsiyasi, ustunlar va bezak elementlarida turli uslublar uyg'unlashib, o'ziga xos yangi ko'rinishlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, masjidlar nafaqat diniy ibodat maskani, balki san'at, hunarmandchilik va milliy me'moriy merosning zamonaviy namoyishi sifatida ham qadrlanmoqda. Bu holat Yangi O'zbekiston davridagi diniy me'morchilik rivojida yangi bosqichni ifodalaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хакимов А. Тошкент замонавий масжидларининг бадий қиёфаси: рух, макон, услуб // San'at – 2020. №2.
2. Хакимов А.А. Исламское искусство Узбекистана: философия и поэтика. – Тошкент, 2022.
3. Хайитбобоева Х.П. Мустақиллик даври Ўзбекистон амалий санъатида анъана ва инновация. Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертациясини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022.
4. Ваҳובהва Г. Тошкентда янги барпо этилган масжидларнинг ганчлорлик безаклари // San'at – 2022. №3.